



TOURIST RESOURCES AND OPPORTUNITIES OF PARKENT DISTRICT

Shakhnoza Shomurodova

Associate Professor

Chirchik State Pedagogical University

Chirchik, Uzbekistan

Iskandar Sharofutdinov

Lecturer

Chirchik State Pedagogical University

Chirchik, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: mountain range, relief, hotel, tourist site, hostels, historical sites, agro, eco, gastrotourism.

Received: 06.03.25**Accepted:** 08.03.25**Published:** 10.03.25

Abstract: The article describes the prospects for the development of tourism in the Parkent district and tourist resources. It also briefly describes the types of tourism developed in the district, including hotels, hostels, historical sites.

PARKENT TUMANINING TURISTIK RESURLARI VA IMKONIYATLARI

Shahnoza Shomurodova

dotsent

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq, O'zbekiston

Iskandar Sharofutdinov

o'qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tog' tizmasi, relyef, mehmonxona, turistik obyekt, xostellar, tarixiy obyektlar, agro, eko, gastroturizm.

Annotatsiya: Maqolada Parkent tumanida turizmni rivojlantirishning istiqbollari vaturistik resurslar haqida bayon qilingan. Shuningdek, tumanda rivojlanlangan turizmning turlari, jumladan, mehmonxonalar, xostellar, tarixiy obyektlar haqida qisqacha keltirilgan.

ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА**Шахноза Шомуродова***Доцент**Чирчикский государственный педагогический университет**Чирчик, Узбекистан***Искандар Шарофутдинов***преподаватель**Чирчикский государственный педагогический университет**Чирчик, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: горный хребет, рельеф, гостиница, туристический объект, хостелы, исторические места, агротуризм, экотуризм, гастротуризм.

Аннотация: В статье рассмотрены перспективы развития туризма и туристские ресурсы Паркентского района. В нем также кратко описываются виды туризма, развитые в районе, включая гостиницы, хостелы и исторические места.

Bugungi kunda mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega davlat hisoblanadi. Chunki, mamlakatimizda 7 mingdan ziyod tarixiy obidalar va ulkan tabiiy turistik obyektlar mavjud. Aynan ushbu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish"ga oid qarori imzolandi. Natijada so'ngi 2 yil davomida mamlakatimizda tashrif buyurayotgan turistlarning soni 3,4 martaga o'sdi.

Jumladan, Parkent tumanida rekratsion-turizmni rivojlantirish, shuningdek, turistik zonalar hamda tog' turizmi markazlarini tashkil etish, mehmon uylari faoliyatini yaxshilash va rivojlantirishning tabiiy geografik asoslarini ishlab chiqarish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Parkent tumani o'zining tabiiy geografik joylashuvi va tabiiy infratuzilmasi jihatidan katta turistik salohiyatga ega. Tuman mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta.

Parkent tumani – tog' oldi hududi hisoblanib, tabiati xushmanzara, hududning ziyoratgohlari, agroturizm maskanlari va ovqatlanish shaxobchalari mavjud bo'lib, bu esa tashrif buyurgan turistlarga zavq bag'ishlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Parkent tumani hududining rekreatsion resurslaridan foydalanish va turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri – bu qulay iqlim sharoiti, tog' va baland tog' zonalarini qoplagan tog' archa o'rmonlari, subalp va alp o'tloqlari, quruq iqlim va sof havo, havoni har xil kasalliklardan tozalovchi fitonsit yengil uchuvchi birikmalar, uzoq davom etuvchi qulay harorat, organizm uchun optimal nisbiy namlik. Shu ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatimizdagi eng qulay rekreatsion hududlardan biri va bu yerda iqlim

bilan davolash, dam olishni tashkil etish uchun maqbul imkoniyatlar yetarli.

Hududda turistlarni jalb qiladigan ekzotik geografik (landshaft) obyektlaridan biri – Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘idir. Bu yerga kelgan turistlarni tabiatning noyob hodisalari: tog‘ relyefi, mag‘rur turgan cho‘qqilar, sharshara, relikv o‘simliklar, archazorlar, noyob hayvon turlari, nurash natijasida hosil bo‘lgan odamsimon shakllar, o‘zgarmagan maftunkor tabiat o‘z qo‘yniga oladi. Kelgusida turistik obyektlar va resurslardan oqilona foydalanish, tog‘ turizmini rivojlantirish, mehmon uylarini tashkil etish va turistik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tabiiy obyektlarda mavsumiy rekratsion dam olish hududlarini yaratish borasida rejalar ishlab chiqilmoqda [1].

Parkent tumanida turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining turizimni rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori doirasida Toshkent viloyatida “Oltin halqa” konsepsiyasini amalga oshirilishi ham belgilab berildi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda «2019-2021 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida»gi, shuningdek, PQ-1053-sonli qarori bilan «Oltin halqa» turizm konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Qarorga binoan, Toshkent viloyatida turistlarning uzluksiz sayohatlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish maqsadida Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo‘ka, Chinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahrida zarur infratuzilma shakllantiriladi [3]. Mazkur tumanlarning har birida xususiy turistik mahsulot ishlab chiqiladi. «Oltin halqa» konsepsiyasi bosqichma-bosqich viloyatning boshqa tumanlarini ham qamrab oladi. Konsepsiyada Zangiota - Chinoz - Bo‘ka - Ohangaron - Angren - Parkent - Bo‘stonliq yo‘nalishida turizm marshrutlari xaritalarini ishlab chiqish, ushbu tumanlarning yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, ularda milliy choyxonalarni tashkil etish va boshqa vazifalar nazarda tutilgan. “Oltin halqa” konsepsiyasida turizm marshrutlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, obyektlarning barcha ma‘lumotlarini o‘z ichiga olgan pasportlarini tayyorlash, har bir turizm obyektida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash bo‘yicha yo‘l xaritalarini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Tumanda rekreatsion turizm aholining bir joydan ikkinchi joyga pul topish maqsadi uchun emas, balki ma‘naviy, ruhiy va jismoniy xordiq chiqarish maqsadida harakat qilib yurishidir. Bunday harakatni sodir qilish turistlarni qabul qilish uchun tumanida yirik salohiyat mavjud.



1-Rasm: Uch tosh tog‘ining bahorgi ko‘rinishi. Oqsoqotasoy.

Parkent tumani tog‘li hudud bo‘lib, tabiati xushmanzara va musaffo, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari keng tumanlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

1. ekoturizm,
2. agroturizm,
3. ziyorat turizmi,
4. gastronomik turizm,
5. sport-sog‘lomlashtirish turizmi
6. tog‘ turizmi yo‘nalishlarida bir qator imkoniyatlar mavjud.

Parkent tumanida so‘nggi yillarda ekoturizm yo‘nalishi jadal o‘sib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri, jumladan, turizmni boshqa turlarga qaraganda arzonligi sabab bo‘lmoqda. Bu tabiat bilan to‘liq aloqada yashashga imkon beradi. Bu sayohatga chiqqan sayyohlarni sayohatga chiqish, otda sayr qilish, toqqa chiqish kabi cheksiz ochiq mashg‘ulotlarni amalga oshirishga majbur qiladi va bularning barchasi, ekoturizm kichik qishloq aholisi markazlari ekologik, arxitektura va etnografik jihatdan o‘zlarining atrof-muhitini saqlash va parvarish qilish uchun iqtisodiy o‘rishini ta‘minlashga imkon beradi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Shu bilan birgalikda Parkent tumanida ekoturizmning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolar bor. Jumladan, mahalliy aholini ekoturistik faoliyatga jalb qilish, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ko‘pgina hududlardagi potentsial sayyohlarning tog‘ mintaqasining ekoturistik noyob tabiiy-landshaft imkoniyatlaridan bexabarligidir. Ushbu va boshqa masalalarni yechish maqsadida ekoturizmning mustahkamligi va ustunligi to‘g‘risida mahalliy aholi(mahalla) bilan uchrashuvlar o‘tkazilayapti.

1-jadval.

Turizm infrastrukturasiga oid asosiy ko‘rsatkichlar

<i>Nº</i>	<i>Nomlanishi</i>	<i>Soni (ta)</i>
1	Mehmonxonalar	2
2	Xostellar	1
3	Oilaviy mexmon uylari	67
4	Sanatoriy va boshqa sog‘lomlashtirish obyektlari	3
5	MICE turizm obyektlari	2
6	Standart talablarga javob beradigan ovqatlanish obyektlari	8
7	- o‘zbek milliy taomlari	8
8	- xorijiy milliy taomlari	0
9	-aralash taomlar	0
10	-fast-fud obyektlar	0
11	Obod qishloq dasturi bo‘yicha kiritilgan mahallalar soni	1
12	Turizm maqomi berilgan mahallalar soni	1
13	Tarixiy arxeologik yodgorliklar	42
14	Muqaddas qadamjolar	6
15	Tarixiy obidalar	0

16	Arxiologik-qazilma obidalar	35
17	Muzeylar	0
18	Hunarmandlar ustaxonalari	5
19	Suvenir do'konlari	1
20	Akvaparklar	1
21	Cho'milish xavzalari	2
22	Suv attraksionli parklar	0
23	Eko, agro turistik hududlar	3
24	Dor yo'llari	0
25	Yo'l bo'yi turizm obyektlari majmui	5
26	"Safari" xizmat ko'rsatish obyektlari	0

Jadval Parkent tumani turizm bo'limi hodimlari bilan birgalikda tayyorlandi.

Agroturizm yo'nalishi ham tumanga kelayotgan turistlarni katta qismini o'ziga jalb qilmoqda. U yashash joylari, ekin maydonlari, "ish joylari", do'konlar, kafelar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu yerda sayyohlarni "mehmon" deyishadi. Ular butunlay uy sharoitini yaratishga harakat qilmoqdalar. Bundan tashqari, psixologik qulaylik ushbu turdagi dam olishning ajralmas qismidir. Ko'pincha odamlar taassurotlar va jismoniy faoliyat uchun emas, balki "ruhiy dam olish" uchun ham borishadi. Ma'lumki, qishloq joylarida muloqot yanada ochiq va samimiy bo'lib, mehmonlarning asab tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Agroturizmdan mahalliy aholi ham katta miqdorda daromat olmoqda. Qishloq turizmini biznes sifatida ko'rib chiqsak, u dam oluvchilar uchun ham, fermer xo'jaliklari uchun ham birdek qiziqish uyg'otmoqda, ularning ixtiyorida bir nechta mehmonlarni qulay joylashtirish uchun yetarli resurslar mavjud.

Bundan tashqari, sayyohlar mahalliy aholiga tanish bo'lgan tabiiy jarayonlarni ekzotik deb bilishadi. Navbahor, Zarkent, So'qoq va Kumushkon hududlarida joylashgan dehqon xo'jaliklariga turistlarning 60%i tashrif buyurmoqda. Bu fermer xo'jaliklari bog'dorchilik, uzumchilik, poliz, sabzavot mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan [2].

Prezidentning 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (PF-5781) farmoni asosida "Turizm qishlog'i", "Turizm mahallasi", "Turizm ovuli" maqomini berish belgilangan. Vazirlar Mahkamasi, viloyat hokimligi va Turizm qo'mitasining yordami bilan Parkent tumanining Kumushkon qishlog'ida respublikada birinchilardan bo'lib "Turizm qishlog'i" loyihasi amalga oshirildi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Toshkent viloyatida 2019-2021 yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirish to'g'risida"gi 1053-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan o'tgan davr mobaynida "Kumushkon" qishlog'ida 60 ta eskirgan simyog'ochlar o'rniga 181 ta yangi elektr temir beton tayanchlari o'rnatildi, 1 km masofadagi elektr kabellari yangilandi, qishloqning "Kumushsoy" hududidagi 15 km yo'llar tekislandi, 5 km yo'l asfalt qilindi, 1 ta yangi aloqa stansiyasi o'rnatildi, 1 ta mehmonxona ("Kumushkon Taraqqiyot Invest" MCHJ tomonidan

jami qiymati 35,5 mlrd.so'mlik (shundan 1,2 mln.dollar xorijiy investitsiyalar) zamonaviy mehmonxona majmuasi), 62 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etildi [2-jadvalga qarang].

Tuman "Xalq banki" tomonidan valyuta ayirboshlash shaxobchasi va turistlar xavsizligini ta'minlash maqsadida turizm polis markazi o'rnatildi va "Kumushkon" qishlog'ining kirish qismida "stella" hamda qiymati 7 mlrd.so'mlik zamonaviy ko'prik qurildi. Shu bilan birga, 9 ta mavsumiy turizm obyektlari, 2 ta joyda o'tovlar shaharchasi, 2 ta joyda turistlarni otlarda sayr qildirish xizmatlari tashkil etildi. Shuningdek, qishloqda turizm jozibadorligini yanada yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli obodonchilik ishlari va boshqa 30 dan ortiq turizm obyektlarini tashkil etish bo'yicha ham ishlar amalga oshirilmoqda.

2-jadval.

**Parkent tumanidagi joylashtirish vositalarini o'rinlar soni to'g'risida
ma'lumot**

№	Dam olish maskani nomi	Sig'mi	
		o'rinlar	
1	Edelves mehmonhonasi	120	
2	Kumushkon sport	250	
3	Sumcha damolish maskani	110	
4	Ergash ota hostel	20	
5	Samsarak faiz	100	2022 yil 3-chorakda ishga tushadi
6	Zamono Rano mehmonhonasi	80	2022 yil 1-chorakda ishga tushadi
7	Shoirilar uyi	60	
8	"Sayyox-2000"	20	
9	"Kumushkon saxovat"	2	
10	"Xoltoyev akmal axadjon o'gli"	3	
11	"Asrorov axadjon xojitoevich"	2	
12	"Muxitjon ota mehmonxonasi"	3	
13	"Shonazarova mariya abdulrazzoqovna"	3	
	Jami	950	

Jadval Parkent tumani turizm bo'limi hodimlari bilan birgalikda tayyorlandi.

Parkent tumanida gastronomik turizim yaxshi rivojlangan. Gastronomik turizmi, mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar, milliy taomlar tayyorlaydigan ovqatlanish shaxobchalarida, oziq-ovqat do'konlariga va boshqa obyektlarga, tashrif buyurib, ularni o'rganish va ta'tib ko'rishni o'z ichiga oladi. Tuman hududida tayyorlanyotgan eng mazali palovlar, ko'mir cho'g'ida pishirilgan qo'y go'shtidan tayyorlangan kaboblar, og'izda eriydigan issiq so'qoq somsalarini turistlarni Parkent tumaniga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu maqsadda Parkent tumaniga kelayotgan turistlar uchun tumanda milliy taomlarning tarqalishi sxemasi ishlab chiqildi [3-jadval]. Kelgusida ushbu hududda mahalliy va xorijiy sayyohlarga gastronomik xizmat ko'rsatish bilan birgalikda turli festival, qiziqarli tomosha va tadbirlar ham o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

Parkent tumanida hududlar kesimida milliy taomlarning tarqalish xususiyatlari

№	Taomnomi	Tayyorlanish hududlari	Izoh
1	Osh	Parkent tumaning barcha hududlarida tayyorlanadi.	Osh (palov)-yurtimizdagi eng mashxur va ma'lum bo'lgan taom hisoblanib, uning tayyorlanish usullari juda xilma hildir.
2	Mastava	Parkent tumaning barcha hududlarida tayyorlanadi	Mastava-guruchdan tayyorlanuvchi osh va shovladan keyingi o'rinda turuvchi yengil suyuq taom bo'lib. U asosan tumanning So'qoq qishlog'ida Ulfatlar choyxonasida san'at darajasida tayyorlanadi.
3	Norin	Parkent tumaning barcha hududlarida tayyorlanadi	Norin – un mahsuloti hamda qaynatilgan go'shtdan tayyorlanuvchi taom bo'lib uning asosiy tayyorlanish vaqti yilning sovuq paytiga to'g'ri keladi. Ohirgi yillarda norin yangi yil taomi urfga kirib kelmoqda.
4	Beshbarmoq	Parkent tumaning Parkent shahrida asosan tayyorlanadi.	Beshbarmoq- qozoq milliy taomi bo'lib Asosiy tarqalish hududlari. Parkent shahri, Kultepe qo'rgoni, Shaxay MFY, Bo'ston qishloqlari hisoblanadi.
5	Xalim	Parkent tumaning Parkent shahrida asosan tayyorlanadi..	Xalim-bahoriy taom bo'lib asosan yilning bahor faslida tayyorlanuvchi, vitaminlarga boy go'shtli taom hisoblanadi. Halim asosan viloyatning Parkent, Ohangaron va Bo'stonliq tumanlarida bahorda tayyorlanadi.
6	Kabob	Parkent tumaning barcha hududlarida tayyorlanadi	Kabob-tumanning barcha hududlarida tayyorlanuvchi taom. Uning asosiy farqlanuvchi jihatlari unga tanlangan go'shtida, yani kabob qoy go'shtidan, mol go'shtidan, tovuq go'shtidan tayyorlanadi. Asosiy markazlari So'qoq qishlog'i, Parkent shahri, Kumushkon qishlog'i va hududning deyarli barcha qisimlarida keng tarqalgan.
7	Madorsomsa	Parkent tumaning barcha hududlarida tayyorlanadi	Madorsomsa- yilning bahor faslida mador o'simligidan tayyorlanuvchi quvvat beruvchi taom hisoblanadi. Asosiy markazlari So'qoq qishlog'i, Parkent shahri, Changi qishlog'i, Hisorak qishlog'i, Novdak va Nevish hududlarida tayyorlanadi.
8	Ayron, go'ja	Parkent tumaning katta yo'l yoqlarida tayyorlanib kelinadi.	Ayron,go'ja- Parkent tumaning katta yo'l yoqlarida asosan bahor, yoz va kuz oylarida tayyorlanuvchi salqin ichimlik hisoblanadi. Ushbu salqin ichimliklar asosan tumanning Qoraqalpoq , Parkent shahri, Kumushkon va shunga o'xshash katta yo'l yoqasida joylashgan hududlarda tayyorlanadi.
9	Baliqli taomlar	Parkent tumaning Parkent shahrida asosan tayyorlanadi.	Baliqli taomlar- baliq va undan tayyorlanuvchi taomlar tarkibi keng bo'lib, qovurilganbaliq, dudlanganbaliq, baliqsho'rva va baliqli kabob kabi turlarga bo'linadi. Asosiy markazi Parkent shahri hisoblanadi
10	Xasip	Parkent tumaning Parkent shahrida asosan tayyorlanadi.	Xasip- bu taom asosan so'yilgan molning kalla oyoqlari, oshqozon va ichaklaridan tayyorlanadi. Shuningdek, juda to'yimli va quvvat bag'ishlovchi taom. Asosan tuman markazida turli hil usulda tayyorlanib iste'mol qilinadi.

Jadval: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tuman hududida turistlar nazariga tushgan diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlar mavjud. Bu esa hududda ziyorat turizimini rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Parkent tumanida turizimni rivojlantirishdagi asosiy turizimning yo‘nalishlari, jumladan, ekoturizm, agroturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, sport-sog‘lomlashtirish turizmi, tog‘ turizmi kabi turizmning bir qator turlari mahalliy turistlarni jalb qilib kelmoqda.

Parkent tumanida gastronomik turizimni rivojlantirish va turistlarni jalb qilish maqsadida kelayotgan turistlar uchun tumanda milliy taomlarning mavjudligi gastroturizimni rivojlanishiga olib kelmoqda. Kelgusida ushbu hududda mahalliy va xorijiy sayyohlarga gastronomik xizmat ko‘rsatish bilan birgalikda turli festival, qiziqarli tomosha va tadbirlar ham o‘tkazish ko‘zda tutilmoqda.

Tumandagi muhofaza etiladigan obyektlardan turizmga foydalanish bo‘yicha chor tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan hududda joylashgan Chotqol tog‘- o‘rmon qo‘riqxonasini rekreatsion va turistik jihatdan o‘zlashtirish shuningdek, turistik marshutlar tashkil qilish qo‘riqxona hududida taqiqlangan, faqatgina milliy bo‘g‘ tarkibidagi hududlardagina turistik sayohatlar amalga oshirish chora tadbirlariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Bugungi kunda Parkent tumanida joylashgan turistik obyektlar, rekratsion hududlar, moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlari davlat muhofazasiga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alibekov L. “Tog‘ turizmi: Qulay sharoit, imkoniyat va daromadlar” .O‘quv qo‘llanma. Samarqand. 2019 y.
2. Sh.G‘.Shomurodova, D.Sh.Jumaniyozova, S.Jumaniyozova “Medicine Tourism And Their Beneficial Properties In The Mountain Clusters Of Chorvoq Free Tourist Zone”. Journal of Survey in Fisheries Sciences. 2023. pp.1783.
3. Sharipov Sh.M., Shomurodova Sh. G.’, Gudalov M. R. “The use of the mountain kars in the tourism sphere in cort and recreation zone of chimgan-charvak”. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 3, 20. pp.475-481.